

SHARQ MUTAFFAKKIRLARINING MA`NAVIY-AHLOQIY TARBIYA HAQIDA QARASHLARI

Kdirbayeva Kamshat Maxsetovna

Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15367922>

Annotaciya. Maqolada ta`lim tarbiya jarayonida xalqimizning tarbiya borasidagi ish tajribalari, madaniy va ma`naviy boyliklarimiz yoshlarimizni ma`naviy ahloqiy tarbiyalashda Sharq mutaffakkirlarining ma`naviy-ahloqiy tarbiya haqidagi fikrlari haqida sóz etiladi.

Kalit sózlar: tarbiya, ahloq, aql, ma`naviy-ahloqiy tarbiya.

VIEWS OF EASTERN THINKERS ON SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION

Abstract. The article examines the experience of our people in the process of education, the cultural and spiritual wealth of our youth, as well as the ideas of Eastern thinkers about spiritual and moral education.

Keywords: education, morality, intelligence, spiritual and moral education.

ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ

Аннотация. В статье рассматривается опыт нашего народа в процессе образования, культурное и духовное богатство нашей молодежи, а также идеи восточных мыслителей о духовно-нравственном воспитании.

Ключевые слова. образование, нравственность, интеллект, духовное и нравственное воспитание.

Barkamol shaxsni shakllantirish jarayonida xalqimizning tarbiyaviy an`analarning tutgan o`rni alohida e`tiborga sazovordir. Hozirgi kunda xalq pedagogikasi namunalaridan samarali foydalanish yullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish ham muhimdir. Chunki ular yuqori malakali kadrlar tayarlash jarayonida o`zining samarali natijasini beradi.

Ta`lim tarbiya jarayonida xalqimizning tarbiya borasidagi ish tajribalarni qo’llanish keng tus olmoqda. Ma`lumki, xalq pedagogikasining ta`lim tarbiyadagi o`rni beqiyosdir. Bizga meros bo`lib qolg`an madaniy va ma`naviy boyliklarimiz yoshlarimizni ma`naviy ahloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Asosan, barkamol shaxsni shakllantirishda xalqning tarbiyaviy an`analarning ahamiyati alohida e`tiborga molikdir. Ota-bobolarimiz tarbiyaning bu sohasida dono fikrlar, baholi maslahatlar aql-nasihat va tajribalar qoldirganlar. Bular asrlar davomida bolalarni tarbiyalash jarayonida sinalgan xalq pedagogikasi hisoblanadi. Xalq pedagogikasida bola tarbiyasi haqida fikrlar mavjud. Chuqur tariyxga ega xalq pedagogikasi namunalarini yozma adabiyotda ham aksini topa bordi. Bola tarbiyasi, shu jumladan shaxsni tarbiyalash yuzasidan fikr yuritgan X-XII asr Sharq klassik adabiyoti namunalarida, jumladan hind xalqining «Kalila va Dimna», Nizomil Mulining «Siyosatnoma», Nasr Xisravning «Saodotnoma», «Rushnama», Yusuf Xos Xojibning «Qutodgu bilig», Maxmud Qashg`oriyning «Devoni lug`ati turk», Axmad Yugnakiyning «Xibotul haqayiq», Qayqabusning «Qabusnoma», qoraqalpoq xalqning buyuk shoyrlari Berdoq, Ajiniyoz, Kunxoja, Jiyon Jirov asarlari jahon olimlarining e`tiborini jalb etgan.

Xalqimizga xos milliy xususiyatlar, uning milliy madaniyati, ilm-fan, san`at va adabiyot sohasida erishgan yutuqlarida oylaviy turmish tarzida, bola tarbiyasida qo`llangan usul va tadbirlarida namayondir.

Yosh avlodni hayotga tayyorlashda asrlar davomida qo`llanilgan usul va vositalar, tadbir shakllari, urf-odat va an`analar tarbiya haqidagi hayotiy tajribalar xalq pedagogikasida mujassamdir. Hali maktab bo`Imagan, pedagogika fan sifatida shakllanmagan davrdayoq, qobila a`zolarning bolalar tarbiyasi sohasida orttirgan tajribalari hayotiy tajriba mevasi sifatida bizning davrga qadar etib keldi va xalq pedagogikasi shaklida tarqib topdi. Har bir jamiyatda yashagan xalq ruxi, du`stlik, birodorlik, mardlik, vatan va xalqqa sodiqlik g`oyalari, ota-onalarning o`z-aro ahilligi, farzandlarning o`z-aro muhabbat, qadr qimmati, insoniy fazilatlari u ijod etgan maqol, topishmoq, ertak, latifa, lapar, askiya, dostonlarda qizqarligi, ravonligi ahangdorligi, pandnomaligi, g`oyaviyligi bilan hayotga muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Xalqimizning ma`naviy madaniyati, dastur va urf-odatlari, Ona diyormizni tashqi bosqinchilardan himoya qilishda nomi afsonaga aynalgan tarixiy voqealar bugungi eshlarimiz ongida o`z Vataniga sodiqlikning namunasini ko`rsatadi.

Har bir insonning milliy qadriyatarmizni ulug`lash va ona tabiatimizni asrashga bog`liq yurak tuyg`ularni Vatan tuyg`usining bir ko`rinishi bulib hisoblanadi.

Vatanga sodiqlik Vatanni sevishning bir belgisi bo`lsa, fidoiylik o`z Vataniga bo`lgan sodiqlikning va xalqi, ona tuprog`iga bo`lgan muhabbatining belgisi hisoblanadi.

Abu Nasr al-Farabiy Sharq uyg`onish davrining buyuk mutaffakiri edi. U fanning boshqa sohalarida ijod qilishi bilan birgalikda ta`lim-tarbiya xususida ham o`zining ilmiy faoliyatida keng to`xtalib o`tadi. Uning fikricha, insonning boshqa jonli mavjudotdan farq qiladigan tomani aql bilan ahloqi, xulqi odobidir. Chunki, ahloq haqida fikr yuritish insonni, insoniylikni o`rgatishdan iborat. Shu boisdan uning ilmiy faoliyatida ahloqshunoslik muhim o`rin tutadi.

Umuman, sharq uyg`onish davrining barcha mutafakkirlari ijodida insoniylikni o`rganadigan ahloq e`tiboriga sazovar bo`lgan soha sifatida ajralib turgan.

Farabiy aql bilan ahloqni bir-biriga bog`liq ekanligini ko`rsatib, tafakkurga asoslangan ahloq g`oyasini ilgari suradi. Farabiy o`zining odob-ahloq haqidagi qarashlarini muayyan bir tizimga tushiradi. Uning so`ziga ko`ra nimaiki baxtni qo`lga kiritishga xizmat qilsa yaxshilikdir, nimaiki baxtga erishishga xalaqit bersa, mutloq yomonliqdir. Bu fikr uning ahloqiy qarashlarida asosiy mezon bo`lib xizmat qiladi. Shunga ko`ra u o`z fikrini yanada chuqurlashtirib, ko`zda tutilgan maqsadni qo`lga kiritishga yordam beruvchi qobiliyat va hatti-harakat yaxshilik, uning aksi bo`lsa yomonlikdir,-degan g`oyasini ilgari suradiki, natijada uning fikrida bola tarbiyasida bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog`i va u aqliy va ahloqiy tarbiya birligidan iborat bo`lmog`i lozim, degan xulosa kelib chiqadi.

Abu Rayxon Beruniy «O`tmish avlodlaridan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «E`tiqodlar va dinlar haqida» kabi ko`pgina asarlarida bolalarni ahloqiy tarbiyasiga oid qimmatli fikrlarni yozadi. Hatto, «Minerologiya» nomli asarida insoniy fazilatlarning ahamiyatini yoddon ko`tarmaydi va inson qalbi javohirlardek toza va pok bo`lmoqlikni uqtirib o`tadi. Abu Rayxon Beruniy insonning ahloqiy fazilatlarini, umuman, ahloqiy tushunchalari insonning tabiatini bilan bog`laydi. Inson tabiat esa, avvalo oilada shakllanadi. Shunga ko`ra, bola tarbiyasida ota-ona ta`siri va namunasi benihoyat kattadir.

Beruniy ota-onalarga qarata bolaning mo`tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g`azoblanishdan, qo`rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ular hoqlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiradi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Beruniyni fikricha, insonparvarlikka asoslangan ahloqiylik insonning eng oliy sifati bo`lish kerak. Bu hislat odam bolasida birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o`z-aro muloqati, ijtimoiy muhit, jamiyat taraqqiyoti jarayonida paydo bo`ladi. Beruniy, shok shubhasiz, ahloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondashadi. Ahloqiylik yaxshilik va yomonlik o`rtasidagi kurash natijasida namoyon bo`ladi va shakllanadi. Uning bu fikri o`z davri uchun yangi va ilmiy bashorat edi.

REFERENCES

1. N.Gaybullaev., R.Yodgorov., R.Mamatkulova. Pedagogika T- 2005
2. O.Xasanboeva va boshkalar Oila pedagogikası T 2007 y
3. X.Ibragimov. Pedagogika T 2007 y
4. Matmuratova G Esemuratova T. Ta`lim va innovatsion tadqiqtolar Tom 3. №12. 100 107b. «FAN VA TALIM»